

## O'QUVCHILARGA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA ONA TILINI O'RGATISH

**Annotatsiya.** Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy adabiyot vositasida integrativ yondashuv asosida ona tilini o'rgatish muammosiga bag'ishlangan. Unda ona tilini o'rgatishda o'quvchilarni badiiy matndagi til hodisalarini lisoniy tahlil qilishga o'rgatish tamoyil va metodlari atroflicha yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** ona tili, integratsiya, badiiy uslub, til hodisalari, didaktik material, badiiy matn, lisoniy tahlil.

## ОБУЧЕНИЕ РОДНОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

**Аннотация.** В данной статье рассматривается проблема обучения родному языку учащихся начальных классов на основе интегративного подхода с использованием художественной литературы. В нем подробно рассматриваются принципы и методы обучения учащихся лингвистическому анализу языковых явлений в художественном тексте при обучении родному языку.

**Ключевые слова:** родной язык, интеграция, художественный стиль, языковые явления, дидактический материал, художественный текст, лингвистический анализ.

## TEACHING THE NATIVE LANGUAGE TO STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

**Annotation.** This article examines the problem of teaching primary school students their native language based on an integrative approach using fiction. It discusses in detail the principles and methods of teaching students the linguistic analysis of linguistic phenomena in a literary text when teaching their native language.

**Support words:** native language, integration, artistic style, linguistic phenomena, didactic material, artistic text, linguistic analysis.

Hozirgi globallashuv davrida ta'limning bosh g'oyasi har tomonlama shakllangan intellektual salohiyatli shaxsni va malakali kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Bu borada 2025 yil 15-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida "– Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog'lom va bilimli avlodga bog'liq. Shu bois yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida sog'lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur, – deb ta'kidlagan edi.

Pedagogikada fanlarni integratsiyalash pedagogning o'quvchilarga ta'sir etishning samarali yechimini topishga qaratilgan yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. "Integratsiya" so'zi lotincha "integratio" qayta qurish, tiklash, to'ldirish, "integr" to'liq, butun, yaxlit degan ma'noni anglatadi [1]. XVIII asrda fanga G.Spenser tomonidan kiritilgan ushbu tushuncha jamlovchi, mujassamlovchi ma'nolarini anglatadi. U fanlararo bog'liqlik g'oyasi bilan ifodalanib, o'quv materialini mazmunini o'rganish, tabiatni yaxlit butunlikda talqin qilishni nazarda tutadi.

Bu borada A.G'ulomov o'rinli qayd etganidek, "boshqa fanlardan olingan ma'lumotlar til hodisalarining amalda qo'llanilishini ko'rsatish uchun nihoyatda muhimdir. Boshqa fanlardan

olingan ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarni har tomonlama bilimli qilish imkoniyatiga ega bo'lishdir. Bunda o'quvchilar badiiy uslubni adabiyot orqali, ilmiy uslubni biologiya, kimyo, fizika, matematika orqali, ish qog'ozlari uslubini huquq asoslari fanlaridan olingan materiallar asosida o'rganadilar [2].

Ta'limdagi o'zaro bog'liqlik masalasi B.Ziyomammedovning qarashlarida ham o'z ifodasini topgan. Olim o'quv jarayoni texnologiyasi alohida olingan bitta dars, bitta mavzu yoki o'quv predmetining bir qismiga, butun o'quv predmetiga tuzib chiqilishi lozimligini ta'kidlab, uning quyidagi besh tamoyili borligini ko'rsatadi: "Muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirish; dars yoki o'quv predmetini modullarga ajratib, ulardan kutilgan maqsad va hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini belgilash; modul ichida test savollarini tuzib chiqish; maqsadga yetish usullarini aniqlash; bir butunlik tamoyiliga asoslanib, dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklar va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratish"[3].

Professor J. Jalolov ham oz ilmiy ishlanishlarida "Fanlararo aloqani darslarda tashkil qilish natijasida o'quv fanlarining soni kamayib, samarasi puxta bo'ladi, tahsil oluvchilarni mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi. Til leksika, grammatika, talaffuz birliklarini yaxlit birlashtiruvchi ijtimoiy hodisa tapzida nutq faoliyatining qurilish materiallari sanaladi. Leksika birligi, grammatika birligi va talaffuz birligi gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuvda o'rgatish-o'rganish birliklari deb qaraladi. Ularning funksional, semantik va formal jihatlarini o'zlashtirish uchun maxsus mashqlar bajarishni talab qiladi - deb ta'kidlagan [4].

Xorij olimlaridan I.V.Pestalotsi o'zining didaktik maqolasida o'quv darsliklaridagi bog'liqlik masalasiga keng to'xtalib o'tar ekan: "Bir-biri bilan bog'liq fanlarni olingga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog'liqlik holatida ekanini angla", -deydi. Pestalotsi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvining hatto xavfliligini ta'kidlaydi.

Bu haqda Yu.M.Kolyaginining fikrlari quyidagicha: "Agar integratsiya o'quv maqsadi sifatida talabaga bilim berish kerak bo'lsa, uni birinchi maktab qadamlaridan boshlab dunyoni bir butun sifatida tasavvur qilishga o'rgating, unda bu elementlar o'zaro bog'liq bo'lsa, integratsiya o'quv vositasi sifatida bilimni rivojlantirishga, kengaytirishga va bilimlarni yangilashga qaratilgan"[5].

Hozirgi paytda ham ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar shu fanlardan olingan ilmiy matnlarni badiiy tasvirlashlari, fanlarni integratsiyalash muammosi pedagogning o'quvchilarga ta'sir etishning samarali yechimini faol izlashga qaratilgan yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara uyushtirish, ijodiy fikrlashga o'rgatish, gupuhlapapo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarni faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat.

Zamonaviy didaktika va metodikada o'quvchilar ta'lim-tarbiyasining muvaffaqiyati ularda dunyoning birligi haqida tushunchalarning shakllanganligi, o'z faoliyatini tabiatning umumiy qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini anglashlari, predmetlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Ta'limdagi integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi.

Ko'rinadiki, ona tili fani materiallarini o'qitishning an'anaviy tajribasi ham integratsion imkoniyatlarning kengligidan dalolat beradi. Bunda ona tili fan sifatida o'z ichiga faqat badiiy matnlarni emas, adabiyot, tarix, tabiatshunoslik, matematikaga oid materiallarni ham oladi. Bunday integratsiya o'quvchilarda ma'lum bir fan yuzasidan muhim ko'nikmalar hosil qilishga xalaqit bermaydi, aksincha, ularni yaxshi o'zlashtirishga kafolat beradi.

Ikki yoki undan ortiq o'quv fanlari o'rtasida aloqa o'rnatishda va ularning integratsiyasida vaqti-vaqti bilan u yoki bu fan tayanch bo'lib xizmat qiladi. Turli fanlardagi mavzularning uzviy bog'liqligi va mantiqiy o'zaro aloqadorligi integratsiyalashgan darslarning asosi bo'lishi kerak.

Integratsiyalashtirish asosida o'rganishga doir ona tili darslarida o'qituvchilar oldida nimani va qanday qilib uyg'unlashtirish, ular o'rtasidagi tutash nuqtalarni birlashtirish masalasi

ko'ndalang turadi. Bir fan doirasida o'qituvchiga integratsiyalashgan darslarni o'tish qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki bu o'quvchining bilim zaxirasi uning yoshi bilan bog'liq. Til ta'limida integratsiya imkoniyatlarining ma'lum ma'noda chegaralanganligi ichki va fanlararo aloqalardan foydalanish hamda rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.

Ona tilini badiiy adabiyot fani bilan integrativ o'rgatish — tilni jonli muloqot, so'z boyligi va milliy qadriyatlar orqali singdirishning eng samarali usulidir. Bu jarayon quyidagi amaliy qadamlardan iborat:

*Lug'at boyligini oshirish:* badiiy asarni o'qish davomida matnda uchragan notanish so'zlarni belgilash va ularning ma'nosini matn kontekstida (izohli lug'atlar orqali) tushuntirish.

*Grammatik qoidalarni amalda ko'rish:* quruq yodlash o'rniga, yozuvchi asarda qo'llagan fe'l zamonlari, sifat va sintaktik qurilmalar (sodda gap turlari) kabi til hodisalarini lisoniy tahlil qilish.

*Nutqni o'stirish va ijodiy yondashuv:* qahramonlar dialoglarini rollarga bo'lib o'qish, asar voqealarini o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish yoki asar finaliga o'zgacha yechim topish.

*Badiiy tasvir vositalarini o'rganish:* lirik she'rdagi qofiyadosh sozlar, o'xshatish, istiora, jonlantirish kabi vositalarni topish orqali tilning tasviriy imkoniyatlarini xis etish.

Badiiy asarlar orqali ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish o'quvchilarga nutqiy vaziyatlarni yaratish, badiiy matnlarni tahlil qilish va faol o'qitish usullaridan (munozaralar, rolli o'yinlar) foydalanish orqali amalga oshiriladi. Adabiy nutq o'quvchilarda o'qish, tinglash, yozish va fikrni bayon qila olish kabi adabiy-nutqiy kompetensiyalarini shakllantiradi, muloqot madaniyati me'yorlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Ona tili darslarida badiiy asarlardan foydalanishda quyidagi metod va usullar qo'llaniladi:

- *Dialogik muloqot va munozaralar:* o'quvchi nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladigan qahramonlarning harakatlarini muhokama qilish, savollarga javob berish, o'qiganlari haqida fikr almashish.

- *Sahnalashtirish va rol o'ynash:* o'quvchilarning his-tuyg'ularini rivojlantirishga hissa qo'shadigan, kommunikativ maqsadni tushunadigan va og'zaki muloqot qobiliyatlarini yaxshilaydigan sahnalarni ijro etish.

- *Yozma ijodiy qayta hikoya qilish turlari:* asar yakunini o'zgartirish, qahramon nomidan hikoya qilish, asar davomini ijodiy hikoya qilish.

- *Matnni tahlil qilish:* kommunikativ vaziyatlarni aniqlash, asar qahramonlari nutqini tavsiflash, "tushunib o'qish" usullaridan foydalanish.

- *Maqol va matallar bilan ishlash:* lingvistik vositalarni tahlil qilish, ulardan fikrlarni ifodalash uchun foydalanish, nutqning hissiy bo'yodqligini rivojlantirish.

Badiiy adabiyot vositasida ona tilini o'rgatishda rivojlanadigan asosiy muloqot ko'nikmalari:

- *Tinglash:* badiiy matnni idrok etish, muallif va kitobxonning o'rnini anglash.

- *Dialogik ko'nikmalar:* dialog o'tkazish, savollar berish va qahramon xatti-harakati yoki vaziyat haqida fikr bildirish qobiliyati.

- *Monologik nutq:* takrorlash, ijodiy hikoyalar, qatnashuvchilarga tavsif berish.

- *Muloqot madaniyati:* odob-axloq me'yorlarini bilish, ulardan nutqda foydalanish (adabiy qahramonlar misolida).

- *Badiiy matnni lisoniy tahlil qila olish ko'nikmalar:* badiiy asar matnida qollanilgan til hodisalarini mavzu asosida aniqlash va uning kategoriyalari boyicha tavsiflash.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Bunda ona tili darslarida ham matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Педагогик атамалар луғати. – Тошкент: Фан, 2008. – 50-b.

2. G'ulomov A., Nematov H. Ona tili ta'limi mazmuni. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 38- b
3. Ziyomammedov B., Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2001.– 24- b.
4. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 10- b
5. Kolyagin YU.M., Alekseenko O.L. Integratsiya shkolnogo obucheniya // Nachalnaya shkola.2001. №9. S. 28-31.